

OO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



«**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**»  
Termiz davlat universiteti rektori  
R. Maraximov

**TOPONIMIKA**  
fanining  
**O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika  
**Ta'lim sohasi:** 530000 – Fizika va tabiiy fanlar  
**Ta'lim yo'nallishi:** 60530400 – Geografiya

**Termiz-2023**

Fan/modul kodi	O'quv yili 2023-2024	Semestr 5	Kreditlar 4
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama
1. Toponimika	60	60	120
<p align="center"><b>I. MODUL TAVSIFI</b> (Description)</p> <p>Geografiya ta'limi joy nomlari bilan juda bog'langan. Geografiyada biror ma'lumot yo'qki, u joy nomi bilan bog'lanmagan bo'lsin. Joy nomlarini, ularning ma'nosi, kelib chiqishini bilmasdan turib, shu joy geografiyasini to'liq o'rganib bo'lmaydi. Toponimika va terminologiya kishilarning ilmiy, ma'naviy saviyasini, madaniyatini rivojlantiradi.</p> <p>Har bir geografiya o'qituvchisi darsni yuqori saviyada olib borishi uchun joy nomlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanishi zarur. Har bir fanni uning terminlari haqida bilimga ega bo'lmasdan turib, yaxshi egallash mumkin emas. Mazkur kurs geografiya mutaxassslariga ilmiy terminlar va joy nomlari (toponimlar) haqida bilim beradi.</p> <p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> - talabalar mazkur kursni o'rganish natijasida toponimik atamalarni, toponimikaning rivojlanish tarixini, xususan O'rta Osiyoda toponimikaning taraqqiyot tarixini, toponimika va terminologiyaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olimlar ishlarini bilib olishadi. Toponimlarning hosil bo'lishi, o'zgarishi, turlari haqida, geografik terminlarning mazmuni, ularga qo'yiladigan talablar, manbalari, o'zgarishi haqida bilim olishadi.</p> <p>Fanning vazifasi talabalarga - toponimlarning ma'nosi, hosil bo'lish va turlariga qarab tasnif qilishni, hosil bo'lishini tahlil etishni, dunyodagi eng yirik toponimlar, mamlakatimizdagi makro va mezotoponimlar ma'nosini, shuningdek termin, tushuncha va iboralarni hech qiyalmay ajratib bera olish kabilarni o'rgatishdan iborat.</p>			
<p align="center"><b>II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p align="center"><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)</b></p> <p align="center"><b>1-MODUL. TOPONIMIKA</b></p> <p align="center"><b>1-mavzu: "Toponimika" faniga kirish</b></p> <p>"Toponimika" fani, tadqiqot ob'ekti va predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Toponimikaning rivojlanish tarixidan, antik dunyo geografiasi asarlarida joy nomlari. Ikk o'rta asrdagi olimlar asarlarida toponimik ma'lumotlar. Toponimikaning hozirgi holati. Mahmud Koshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn</p>			

Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur, E.M. Murzaev, H.H. Hasanov, S. Qoraev va boshqalarning toponimik ishlari. Yirik sharqshunoslar asarlarida joy nomlari. O'zbekistonda toponimikanning hozirgi ahvoli, toponimik tadqiqotlar.

## 2-mavzu: Toponimika va geografik terminshunoslik

Toponimika va geografik terminshunoslikning bog'liqligi. Geografiyaning o'rganishdagi ahamiyati, tadqiqot uslublari. Maxsus toponimik atamalar. Ilmiy va xalq toponimikasi. Makro, mezo va mikrotoponimlar. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. Xalq toponimikasining keng qo'llanilishi.

### 3-mavzu: Geografik terminlar

Ularg qo'yiladigan talablar. Terminlarning manbalari. Milliy, mahalliy, baynalmilal atamalar, tarjima atamalar, metafora terminlar.

Geografik terminlarning turlari. Toponimik terminlar va ularning turlari. Joyning geografik o'rmini bildiruvchi, geomorfologik, gidrologik, iqlim bilan bog'liq, landshaft bilan bog'liq, floristik va faunistik, o'konimik, etnonimik va boshqa terminlar.

## 4-mavzu: Toponimikaga oid me'yoriy huquqiy hujjatlar

"Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

## 5-mavzu: Geografik nomlarning turlari

Toponimik sinf (klass)lar, ularning tasnifi. Geografik nomlarni turlarga ajratish mezonlari.

Geografik nomlarning paydo bo'lishi, tasodif nomlar, o'xshatib qo'yilgan nomlar, ko'chma nomlar, murakkab nomlar, atqil otdan hosil bo'lgan atamalar (detoponimizatsiya), ko'chma ma'noli (metafora) atamalar. Bularning turlari. Geografik nomlarning paydo bo'lishi va xususiyatiga ko'ra turlari: ulq tomonlarini bildiruvchi, joy xususiyatlarini, o'rmini bildiruvchi nomlar, joyning reliefiga bog'liq nomlar, fitonim va zoonimlar, gidronimlar, antroponimlar, kishihunar bilan bog'liq bo'lgan nomlar, dimiy, afsonaviy, ajoyib-g'aroyib, chuchmal nomlar. Oydin va nooydin nomlar.

## 6-mavzu: Toponimika va landshaft

Geografik joy nomlarida muayyan hudud tabiatining aks etishi. Toponimika va landshaft. Toponimlar - o'zgaruvchan tabiiy sharoitini aniqlovchi manba sifatida, joy nomlarining toroformantlar asosida shakllanishi xususiyatlari

## 7-mavzu: Geografik nomlarni tasniflash mezonlari

Geografik nomlarni tasniflash tamoyillari. Toponimlarni geografik ob'ektlar hajmiga, katta- kichikligiga ko'ra tasniflash. Geografik nomlarni etimologik tahlilga ko'ra tasniflash. Geografik nomlarning tarixiy tasnifi.

## 8-mavzu: Geografik nomlarning yozilishi va talaffuzi

Geografik nomlar transkripsiyasi. Geografik nomlarning to'g'ri yozilishi. Ana'ana nomlar.

Tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlar, chala tarjima qilinadigan nomlar. Ularning yozilish qoidalari. Joy nomlarini qo'shib yozish, chiziqcha orqali yozish qoidalari.

## 9-mavzu: O'zbekiston viloyatlari toponimlari

O'zbekiston viloyatlari toponimlari. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi geografik nomlar. Viloyatlardagi geografik joy nomlarining o'ziga xos xususiyatlari. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlaridagi joy nomlari, ularning turlari. Toshkent shahri toponimlari.

## 10-mavzu: Toponimik tadqiqotlar

Tadqiqot metodlari, aholi orasida ma'lumotlar to'plash. Toponimik va terminologik kartochkalar. Toponimik ekspeditsiyalar uyushtirish. Toponimlarning xalqona va ilmiy talqinlari.

## 11-mavzu: Geografiya ta'limi va toponimika.

Geografiya bilan toponimika hamda terminshunoslikning bog'liqligi. Geografiyada joy nomlari ma'nosini, terminlarni bilishning ahamiyati. Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish.

## 12-mavzu: Mintaqaviy toponimika

Qit'alar, dunyo okeanlari va ularning qismlarini nomlari. Qit'alar va dunyo okeanlari nomlari haqida umumiy ta'lumot. Qit'alar nomi va ularning jamiyat rivojlanishi bilan bog'liqligi. Dunyo okeanlari va ularning tarkibiy qismlarini nomlanishi.

## 13-mavzu: Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alar toponimiyasi

Yevropa qit'asining toponimik landshafti haqida umumiy tushuncha. Shimoliy va G'arbiy Yevropa toponimiyasi o'ziga xos xususiyatlari. Janubiy va Sharqiy Yevropa toponimiyasining shakllanishi. Osiyo toponimiyasi haqida umumiy tushuncha. Submintaqalar toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari. Markaziy Osiyo davlatlari toponimiyasiga qisqacha tarif.

Afrika toponimiyasining shakllanish tarixi va uning farqlovchi xususiyatlari

## 14-mavzu: Shimoliy va Janubiy Amerika toponimiyasi

Shimoliy Amerika mamlakatlari toponimiyasi haqida qisqacha tarif. Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va Grenlandiya toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Meksika, Markaziy Amerika va Vest-Indiya toponimiyasining stratigrafik qatlam lari va ularning o'zaro aloqadorligi. Janubiy Amerika

toponimiyasining asosiy rivojlanish bosqichlari va hududiy tafovutlari. And toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari. Anddan tashqari Sharq toponimiyasi.

#### 15- mavzu: Avstraliya, Okeaniya, Antarktida toponimiyasi

Avstraliya, Okeaniya va Antarktida toponimiyasiga umumiy ta'rif. Avstraliya toponimiyasi va uning farqlovchi xususiyatlari. Okeaniya va Antarktida toponimiyasining paydo bo'lishi va shakllanish tarixi.

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Топонимик atamalar jadvalini tuzish va ularni ilmiy adabiyotlar yordamida to'g'ri izohlash.
2. Turli tillardagi shahar termini yordamida toponimlar jadvalini tuzish
3. Turli tillardagi tog' termini yordamida toponimlar jadvalini tuzish
4. Turli tillardagi daryo termini yordamida toponimlar jadvalini tuzish
5. Turli tillardagi orollar, yarim orollar termini yordamida toponimlar jadvalini tuzish.
6. Turli tillardagi dengiz, qo'ltilar va bo'g'iz termini yordamida toponimlar jadvalini tuzish
7. O'rta Osiyo va O'zbekiston toponimlari
8. O'zbekiston oronim va gidronimlari
9. O'zbekiston etnotoponimlari va antroponimlari
10. Yevrosiyo toponimlari
11. Afrika toponimlari
12. SHimoliy Amerika toponimlari
13. Janubiy Amerika toponimlari
14. Avstraliya, Okeaniya va Antarktida toponimlari
15. Referatlar prezentatsiyasi

Amaliy mashg'ulotlar bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullarda yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

(Independent study and independent work)

Mustaqil ta'lim ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o'z ichiga oladi.

1. Mustaqil ta'lim ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o'z ichiga oladi.

1. O'zbekiston hududidagi qadimgi turkiy toponimlar tablihi
2. Geografik terminlar va ularning shakllanish xususiyatlari

3. Etnotoponimlar va ularning vazifasi
4. Professor S. Qoraevning toponimik merosi
5. Tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan toponimlar tahlili
6. Mahmud Koshg'ariyning toponimik merosi
7. Geografik ob'ektlarni nomlashda mavjud muammolar tahlili
8. Sifdan tashqari mashg'ulotlarda geografik nomlarni o'rganish
9. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida paydo bo'lgan toponimlar
10. Geografik nomlar klassifikatsiyasi
11. Diniy va afsonaviy nomlar tahlili
12. O'zbekiston gidronimlarining shakllanish xususiyatlari
13. Antrotoponimlar va ularning hududiy tarqalish qonuniyatlari
14. Professor H. Hasanovning toponimik merosi
15. Cho'l mintaqalari toponimiyasining shakllanish xususiyatlari
16. "Boburnoma" dagi geografik nomlar talqimi
17. Iqtisodiy-ijtimoiy omillar asosida shakllangan toponimlar
18. O'zbekiston gidronimlarining shakllanish xususiyatlari
19. Surxondaryo viloyatidagi joyning tabiiy xususiyatlari va o'rninga bog'liq bo'lgan toponimlar.
20. Geografik nomlarning transformatsiyasi
21. Toponimik tadqiqotlar tarixi
22. Geografik nomlarning stratigrafik qatlamlari
23. O'rta Osiyo joy nomlarini o'rganishga hissa qo'shgan olimlar
24. "Hudud ul-olam" asaridagi geografik nomlar talqimi
25. Etnotoponimlar va ularning shakllanish xususiyatlari
26. O'yonimlar va ularning paydo bo'lish sabablari
27. Maktab geografiya ta'limida joy nomlaridan foydalanish
28. O'zbekistondagi joyning tabiiy xususiyatlari va o'rninga bog'liq bo'lgan toponimlar.
29. O'zbekistondagi kishilarning kasb-humari bilan bog'liq joy nomlari.
30. Osiyoning poytaxt shaharlari, oronimlari, daryolari, ko'llari.

**Izoh- Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari hamda ularning bajarilish shakllari, tegishli maksimal ball va topshirish muddatlari modul – kredit bo'yicha taqsimot jadvalida berilgan.**

4.

### V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)

Toponimika fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalangan holda, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbir etib, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Shuningdek, atroficha bilim olish maqsadida, talabalarga musqatli ish va mustaqil ta'lim beriladi. Bu fanning yutuqlarni tibbiyot, veterinariya va xalq xo'jaligining boshqa

sohalariга tadbiiq etish maqsadiga muvofiqdir.

**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**  
(**Educational technologies and methods:**

ma'ruzalar; kompyuter texnologiyasi asosida slaydlar namoyishi. amaliy mashg'ulotlar; laboratoriya usulida olib boriladi plastik usullar; abom-chizma interfaol keys-stadilar; guruhlarda ishlash; klaster taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa va kichik guruh bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar**  
(**Requirements for obtaining loans:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish.

**VIII. Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 12 oktyabrda tasdiqlangan "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 41-son, 448-moddada).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrda "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zR Qonuniga muvofiq geografik ob'ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi 295-son qarori (O'zR qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 41-42-son, 483-modda).
3. Басик С.Н. Общая топонимика: Учебное пособие для студентов географического факультета. - Мн.: БГУ, 2006. - 200 с.
4. G'ulomov P.N., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. -T.: Universitet, 2005.
5. Qorayev S. Toponimika. -T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, 2006. - 320 b.
6. Hakimov Q. Toponimika. Darslik. -T.: "Muntoz so'z", 2016. 386-b.
7. Хакимов К. М., Миракмалов М.Т. Топонимика: "5140600-География" бакалаврият таълим йўналиши талабалари учун дарслик. Масъул мухarrир Гуломов П.Н. - Тошкент. " " 2020. 355 -б.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

- 8.2019 yil 17 iyundagi PQ-4358-son "2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2019 yil, 19 iyun, 3308-son
  9. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi // T., - "O'zbekiston". - 2021 y.
  11. Абдуназаров Х.М., Умарова М.Х. Сурхондарё географияси Термиз, 2022.
  12. Ahmadaliev Yu.I. Farg'ona viloyati toponimlari.-Farg'ona, 2009.
  - 11.Mirakmalov M.T. Xalq tabiiy geografik terminlari. -T.: Fan va texnologiya, 2009, 176 b.
  - 12.Hasanov H.H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. -T.: 1965.
  13. Hasanov H.H. Geografik nomlar siri. -T.: O'zbekiston, 1985
  - 14.G'ulomov P.N. Jo'g'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1994
  - 14.Mirakmalov M.T. Xalq tabiiy geografik terminlari. -T.: Fan va texnologiya, 2009, 176 b.
  - 15.Tursunov S. M. Surxondaryo viloyati toponimlari. T. 2014.
  - 16.Tursunov S. O'zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi. Termiz. Surxonnashr, 2017.
  - 17.Umarova M. Surxondaryo viloyati toponimlarini o'rganishning geografik jihatlari / Monografiya/. Toshkent: — Innovatsiya-Ziyo, 2021, 116 b.
- Elektron-axborot manbalari:**
- [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)  
**Geografiya.cc.uz/index.php/lk=main&ln=ru**  
**Family-history.ru/material/onomastics.**

7. Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

8. Fan (modul) uchun ma'sul:  
 M.Erdanov – geografiya kafedrasining mudiri, dots.  
 M. Umarova – geografiya kafedrasining katta o'qituvchisi

9.

**Taqirizchilar:**

**Q. Hakimov** - Jizzax davlat pedagogika universiteti geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası, g.f.d.

**A.Sattorov** - Termiz davlat pedagogika instituti geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası dotsenti